

Yo'ldoshev Sardorbek Asliddin o'g'li,
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Yoshlar psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

OILAVIY NIZOLARNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (SIBLING MAQOMI MISOLIDA)

UO'K: 159.9

DOI: 10.34920/SO/VOL_2023_ISSUE_1_8

YO'LDOSHEV S.A. OILAVIY NIZOLARNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (SIBLING MAQOMI MISOLIDA)

Mazkur maqolada jamiyatda oilaviy munosabatlar, sibling munosabatlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro aloqalari, jamiyatda yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgani sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Ushbu tanlangan mavzu jamiyatda va oilaviy munosabatlarda muhim rolga egaligini inobatga olib, mavzu dolzarb va ahamiyatli deb hisoblash mumkin.

Tayanch so'z va tushunchalar: sibling, agressiya, etnopsixologiya, nizo, konstruktiv nizo, destruktiv nizo, moslashuvchanlik, raqobat, men konsepsiyasi.

ЙУЛДОШЕВ С.А. ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ СПОРАХ

В данной статье рассматриваются семейные отношения, отношения между братьями и сестрами, взаимодействие родителей и детей, которые с незапамятных времен являлись одной из важнейших проблем в обществе. По мере развития общества важность этой проблемы будет возрастать. Принимая во внимание, что данная выбранная тема имеет важное значение в обществе и семейных отношениях, тему можно считать актуальной и важной.

Ключевые слова и понятия: сиблинг, агрессия, этнопсихология, конфликт, конструктивный конфликт, деструктивный конфликт, адаптивность, конкуренция, концепция - "Я".

YO'LDOSHEV S.A. ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES

This article highlights family relations, sibling relations, interactions between parents and children have been one of the most important problems in society since the beginning of time. As society develops, the importance of this problem will increase. Taking into account that this chosen topic has an important role in society and family relations, the topic can be considered relevant and important.

Key words and concepts: sibling, aggression, ethnopsychology, conflict, constructive conflict, destructive conflict, adaptability, competition, concept - "I am".

Kirish.

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, "Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi" konseptual g'oyasini ro'yobga chiqarish, oila institutini qo'llab-quvvatlash, ota-ona va farzand munosabatlarini yaxshilash, yoshlarni oila qurish, farzand tarbiyalashga psixologik tayyorlash masalalarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ni amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi¹. Natijada ota-ona va farzandlar muloqotini belgilovchi omillarni aniqlash, ularning turli xil nisbatda hosil qiladigan ta'sir effektlarini tekshirish, ularni nazorat qilish va prognozlash imkoniyatlarini ko'rsatish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, PQ-3808-son, 2020 yil 18 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4602-son qarorlari hamda 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmonidagi zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilash uchun "sibling" munosabatlarni tahlil qilish, ibratli ota-onalik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ish samarasini oshirish vazifalarini bajarishda dasturil amal bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi.

Oilaviy munosabatlar, ayniqsa, sibling munosabatlar, ota-onalar va farzandlar o'zaro aloqalari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan

sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida ko'proq darajada o'zlashtiriladi va an'ana, ma'naviy meros tarzida avloddan-avlodga o'tadi. Shunday ekan, jamiyat, xalq va millatning istiqboli ko'p jihatdan shu munosabatlarning holatiga bog'liq. Buning uchun esa oildagi ichki muhitning har tomonlama sog'lom, ma'naviy mustahkam bo'lishiga erishish lozim.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Oiladagi muhitning barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash borasidagi ahamiyati muammosiga buyuk ajdodlarimiz, o'z davrining allomalari bo'lgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojibdan tortib hozirgi zamon psixolog olimlarining o'ziga xos fikr mulohazalar bildirganlari diqqatga sazovordir.

Oila, oilaviy munosabatlar, oilaning turmush tarzi, er-xotin va farzandlar munosabati va ziddiyatlari masalalari muammosi bilan respublikamiz psixolog olimlari ham shug'ullanib kelmoqdalar. Jumladan, G'.B.Shoumarov² oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlar, oilada er-xotin munosabatlarning o'ziga xos etnik xususiyatlari borasida olib borgan keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari, V.M.Karimova tomonidan o'zbek yoshlarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari masalasidagi ilmiy izlanishlari, N.A.Sog'inovning er-xotin munosabatlari masalasida olib borgan ishlari, R.Samarovning tojik oilasining, R.Dushanovning qirg'iz oilasining, N.Salaeva xorazm oilasining hududiy ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlari borasidagi tadqiqot ishlari, Z.Rasulovning oila, nikoh an'analari masalasidagi tadqiqot ishlari, M.O'tepberganovning qoraqalpoq oilalarining etnik xususiyatlarining ilmiy jihatdan o'rganilganligi, G.Niyozmetovanning³ o'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari mavzusining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 – 6 (766)-son – B.140.

² Yo'ldoshev S.A Oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlari.Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha magistrlik diss. – Toshkent: 2022. - B-3.

³ Yo'ldoshev S.A Oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlari.Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha magistrlik diss. – Toshkent: 2022. - B-3.

ilmiy jihatdan o'rganilganligi o'zbek oilasining o'ziga xos psixologik xususiyatlari borasidagi ilmiy ma'lumotlar bazasini boyitilishiga xizmat qildi. Shu bilan birga o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar kamchilikni tashkil qiladi va bu borada tadqiqot ishlarini izchil davom ettirishni taqozo etadi.

Maqolaning ilmiy yangiligi:

- oilada sodir bo'ladigan nizolarning etnosixologik xususiyatlari sibling munosabatlari misolida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi;
- oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlarining ijtimoiy-psixologik omillari ochib beriladi;
- oilada farzandlar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muammosiga oid nazariy manbalarni muayyan mezonlar asosida tahlil etiladi.

Tadqiqotning maqsadi nazariy va eksperimental-tajriba ishlari asosida sibling munosabatlar misolida oilaviy nizolarning etnopsixologik tomonlari aniqlash va psixologik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot ob'yekti: O'zbek va Tojik oilalaridagi sibling maqomidagi farzandlar o'rtasidagi nizolar va ularning kelib sabablarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

Tadqiqotning predmeti: Oilada farzandlar o'rtasida sog'lom muhit yaratishning ijtimoiy-pedagogik shart sharoitlari.

Tadqiqot empirik manbasini tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda kuzatish, anketa-so'rovnomma, ijtimoiy-psixologik testlar, matematik statistika metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism.

Oilaviy nizolar juda keng tarqalgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega va ular ta'sirchan tarkibga ega bo'lgan holatlardir. Boshqa tomondan, tomonlar o'rtasidagi munosabatlar uzoq vaqt davomida saqlanib turadi.


Oilaviy nizolar - bu ikki yoki undan ortiq tomonlar bir-biriga mos kelmaydigan deb qabul qilingan yoki ifodalangan holatlar. Ular muntazam ravishda kundalik hayotimizning turli sohalarida paydo bo'lishi mumkin va agar ular to'g'ri muomala qilinsa, o'zgarishlarga va yangi

munosabatlarga erishish uchun ijobiy bo'lishlari mumkin. Amerikalik psixoterapevt Charlz Likson¹ oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan oilaviy nizolarning o'ziga xos tomonlariga to'xtalib utgan Uning fikricha oilaviy nizolar shaxs taraqqiyotini boshlab beruvchi ilk nuqtadir. Shunday ekan bunday nizolarga ijobiy ko'z bilan qarashimiz mumkin. Xar xolda er, xotin va ularning bolalarining oilaviy nizolarga baholari hamisha salbiy bo'ladi. Likson er va xotin o'rtasidagi nizolar bilan ota-ona va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning aniq farqi borligini e'tirof etadi. Uning fikricha er-xotin o'rtasidagi nizolar jinsga bog'liq tafovutlar, oiladagi xukmronlikka intilish tufayli kelib chiqadi. Bunday xolat oilada tarbiya topayotgan farzandlar ongida o'z aksini topadi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ko'proaq xissiy-emotsional xarakterga egaligi bilan boshqa nizolardan ajralib turadi va uning asosida yosh bilan bog'liq farqlar turadi. Ya'ni kattalar o'zlaridan ancha yosh va kuchsizroq bo'lganlar bilan nizoga borishga moyil bo'lishadi. Agar bu holat tez tez takrorlan mana shu kuchsizlik va o'zlik keyinchalik bemehrlikka aylanib ketish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Bu holat esa ota-onaga nisbatan qahr va shavqatsizlik tuyg'usining shakllanishiga olib keladi. Olimlarning fikricha farzand va ota-onalar o'rtasidagi nizolar yosh davrlariga monand ravishda bir biridan farqli kechadi. Bu esa yuqoridagi nizolarning bartaraf etish yo'llari xilma xil yondashuvni taqozo etishini anglatadi.

Oilaning hayotiy tarzi va ziddiyatli masalalarini o'rganish bilan xorijiy davlatlar, Vatanimizning sotsiolog, psixolog, faylasuf, pedagog olimlarni shug'ullanib kelmoqdalar. Amerikalik olim V.Satir² zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromi va tutumini bola rivojlanishining o'ziga xos bosqichlari bilan bog'lagan holda o'rgangan. Bundan muallif bir-birlaridan farq qiluvchi 9 bosqichni ajratgan. Masalan, birinchi bosqich oiladagi hayot davri ikki yoshning

¹ Yo'ldoshev S.A. Oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha magistrlik diss. - Toshkent: 2022. - B-8.

² Сатир В. Ви и ваша семья. - М.: Аспект процесса, 2001.

1-rasm. Nizoli oiladagi farzandlarni millatiga ko'ra shkalalar farqi¹.

uzoq muddatga ahdu-paymon qilib niqoh qurishga qaror qilgan onlardan boshlansa, ikkinchi bosqich oilada zurriyotni paydo bo'lishi, tug'ilishi, er-xotinning asl munosabatlarini sinovdan o'tkazish va shu bilan bog'liq yangicha munosabatlarni shakllanishi, ya'ni er-xotinning yangi rollarga kirishi, ijtimoiy ma'suliyatni olishi, ota-ona rollariga kirishi bilan ifodalanadi


Biz ilmiy izlanishlarimiz va tadqiqotlarimiz davomida bir qancha metodikalardan foydalanildi, jumladan, K.Tomasning "Shaxslararo munosabatlarni aniqlash metodikasi", Ijtimoiy – psixologik moslashganlik xarakteristikalarini o'rganish metodikasi, D.X.Olson, J.Portner, I.Lavinning "Oilaviy moslashuv va jipslik shkalasi" so'rovnoma, V.V.Stolin va S.R.Pantileyevning "O'z-o'ziga bo'lgan munosabat" kabi so'rovnoma va metodikalardan² foydalanildi. Tadqiqotimiz miqdoriy va sifatiy tahlilida SPSS programmasidan foydalanildi hamda obyekt sifatida 32 ta oiladagi ota-onalar va ularning farzandlari tanlab olindi. Natijalarga ko'ra aksariyat shkalalarning normal taqsimlanish qonuniga mos kelganligi bois parametrik "student-t" mezonida ishladik. Unga ko'ra molashuvchanlik tojik millatiga mansub farzandlarda o'zbek oiladagi farzandlarga

nisbatan 95% dan ($t=-2,707$; $p<0,05$) yuqori ekanligini aniqlagan ishonchli farqdan bilishimiz mumkin. Huddi shunday farq bilan o'ziga ishonchning tojik farzandlarda o'zbeklarga qaraganda ($t=-2,078$; $p<0,05$) yuqori ekanligi, O'zini qabul qilish ($t=-3,634$; $p<0,01$), O'z-o'ziga bog'langanlik, O'zini o'zgartirishga kuchli istak, o'zidan qoniqmaslik, o'z "Men"ining idealiga mos kelishga talpinishi ($t=-3,795$; $p<0,01$) tojik farzandlarda o'zbek farzandlarga nisbatan yuqori bo'lishi 99% dagi ishonchli farqdan bilishimiz mumkin.

Natijadagi farqlardan ko'rinib turibdiki, nizoli oilalardagi o'zbek farzandlarining oilaviy munosabatlarda moslashuvchanlik, o'ziga ishonch, O'zini qabul qilish, o'ziga bog'langanlik ko'rsatgichlari bo'yicha tojik millatiga mansub farzandlardan pastroq ekanligi kuzatilgan. Ammo ijtimoiy munosabatlarda o'zini namoyon qilishi o'zbek farzandlarida tojiklarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi aniqlandi. O'zini aybdor his qilish bilan bog'liq munosabat tojik oiladagi farzandlarda o'zbek oilasidagi farzandlarga qaraganda yuqori 95% dagi ishonch darajasi bilan farq aniqlandi ($t=-2,388$; $p<0,05$). Xuddi shunday farq bilan ijtimoiy munosabatlarda soxta munosabat bildirish tojik oiladagi farzandlarda o'zbek oiladagi farzandlarga nisbatan 95%da ishonchli farqning kuzatilgaligini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy munosabatdagi qiyinchiliklarga nisbatan muammodan qochish ko'rsatgichida

¹ Yo'ldoshev S.A. Oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha magistrlik diss. – Toshkent: 2022. – B-69.

² Yo'ldoshev S.A. Oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha magistrlik diss. – Toshkent: 2022. – B-53.

2-rasm. Sog'lom ijtimoiy psixologik muhitdagi oila farzandlarida etnopsixologik farq gistogrammasi¹.

tojik farzandlarda ushbu munosabat farqli yuqori ekanligi aniqlandi. ($t=-2,062$; $p<0,05$).

Tadqiqotimizning o'rganish predmetiga ko'ra nizoli oilalarning etnopsixologik xususiyatlarini aniqlash uchun metodikalarimizdan ijtimoiy munosabatlarni aniqlovchi, o'zini baholovchi, oilaviy munosabatni aniqlovchi hamda shaxslararo munosabatni aniqlash metodika natijalarini ushbu oiladagi ota-onalar hamda farzandlarining ko'rsatgichlarini korrelyatsion mezonda foydalanib alohida tahlil qilindi. Tadqiqotimizda o'zbek ota-onalardan olingan metodika shkalalarini o'zaro bog'liqligini tahlil qilganimizda quyidagi jadvaldagi natijalar aks etdi. Oilaviy jisplikdan qoniqish qanchalik oshsa, oilaviy moslashuvchanlik ham oshishini ko'rsatdi ($r_{\text{,}}745$; $p<0,05$). Bundan tashqari shaxslararo munosabatda ota-onalarda raqobatchanlikning oshishi vaziyatdan qochishning ham birga bog'liq oshishini ko'rsatdi ($r_{\text{,}}762$; $p<0,05$) (1-jadval).

Ichki nazorat munosabatining oshishi, hamkor munosabatning ham oshishi bilan bog'liqligi ($r_{\text{,}}721$; $p<0,05$), munosabatda vaziyatdan qochish ko'rsatgichining oshishi ichki nazoratning kamayishi bilan teskari bog'liqlikni namoyon qildi. ($r_{\text{,}}-790$; $p<0,05$) Sinaluvchilarimizda o'zini qabul qilishi qanchalik oshsa, ichki nazoratning ham oshishi aks etdi.

¹ Yo'ldoshev S.A Oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha magistrlik diss. – Toshkent: 2022. - B-70.

($r_{\text{,}}716$; $p<0,05$) O'ziga bog'langanlikning oshishi, o'zini aybdor his qilishi bilan bog'liqligini aniqladik ($r_{\text{,}}723$; $p<0,05$).

O'zbek nizoli oilalardagi farzandlarning metodika shkalalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun nizoli vaziyatlarda raqobatchanlikning kamayishi hamkorlikning oshishini ($r_{\text{,}}-572$; $p<0,05$), hamkorlikning kamayishi nizoli vaziyatlarda vaziyatdan qochishning oshishi ($r_{\text{,}}-629$; $p<0,01$)ni aks ettirdi (2-jadval).

Oilaviy jisplikdagi farqning oshishi(qoniqishning pasayishi) o'ziga munosabatning oshishi bilan ($r_{\text{,}}512$; $p<0,05$), nizoli vaziyatlarda vaziyatdan qochishning oshishi o'zini qabul qilishning ham oshishi ($r_{\text{,}}524$; $p<0,05$), ichki nazoratning oshishini aks ettirdi. ($r_{\text{,}}552$; $p<0,05$) (3-jadval).

Ijtimoiy munosabatda soxtalikning oshishi kelishuvchanlikning ($r_{\text{,}}667$; $p<0,05$), ichki nazoratning ($r_{\text{,}}557$; $p<0,05$), o'zini aybdor his qilishning ($r_{\text{,}}530$; $p<0,05$), ijtimoiy munosabatda ustuvorlikning ($r_{\text{,}}536$; $p<0,05$), ijtimoiy munosabatda emotsional komfortlik ($r_{\text{,}}789$; $p<0,01$) bilan boshqalarni qabul qilishi oshishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tojik millatiga mansub nizoli oiladagi ota-onalarning o'lchov shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda ijtimoiy munosabatlardagi ko'rsatgichlar quyidagicha namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin (4-jadval)

1-jadval. Nizoli oiladagi o'zbek millatiga mansub ota-onalardan o'tkazilgan metodika korrelyatsiya jadvali.

	Oilaviy jipslik	Oila mosligi	Raqo-bat	Ham-korlik	Keli-shuv	Vaziyat-dan qochish	Mos-lashish
Oilaviy jipslik	1	,745(*)	,180	-,196	,093	,326	,154
Oila mosl.		1	-,242	-,034	-,282	-,205	-,224
Raqobat			1	-,095	,631	,762(*)	-,034
Hamkorlik				1	-,583	-,243	-,743(*)
Kelishuv					1	,532	,601
Vaziyat-dan qochish						1	,300
Moslash							1

2-jadval. O'zbek nizoli oilalardagi farzandlardagi metodika shkalalari o'rtasidagi bog'liqlik.

	Oilaviyjipslik	Oilamosl	Raqo-bat	Ham-korli	Keli-shuv	Vaziyat qochish	Mosla shuv
Oilaviy jipslik	1	,345	,424	-,093	-,161	,190	,083
Oila moslash		1	,199	,040	-,383	,338	-,249
Raqobat			1	-,572 (*)	-,362	,327	,000
Hamkorlik				1	,292	-,629 (**)	-,303
Kelishuv					1	-,406	-,258
Vaziyat-dan qochish						1	,063
Moslashuv							1

3-jadval. O'zbek nizoli oilalardagi farzandlardagi metodika shkalalari o'rtasidagi bog'liqlik.

	Ich_sam	Oz_ishon	Oz_bosh	Oz_mun	Oz_bah	Oz_qabul	Oz_bogl	Ich_niz	Oz_ayb
Oilaviy_jips	-,029	,366	,134	,512(*)	,457	,293	-,189	,107	,188
Oila_mosl	,123	-,009	,444	,390	-,045	-,011	-,160	-,216	-,304
Raqob	-,109	,304	,452	-,201	,156	,103	-,161	-,019	,132
Hamkor	-,045	-,195	-,276	,245	,189	-,293	-,243	,183	-,180
Kelishuv	-,161	,066	-,392	-,407	,091	,122	,249	,390	,178
Vaziyat-danqochish	,231	-,127	,336	,160	-,343	,524(*)	,107	-,160	,315
Moslash	-,418	,000	-,042	,347	-,171	-,170	-,155	,014	,084
Ich_sam	1	,061	,013	-,186	,173	,198	,512(*)	-,385	-,047
Oz_ishon		1	,375	-,127	,787(**)	,454	,380	,069	-,071
Oz_bosh			1	,124	,227	,137	,222	-,146	,034
Oz_mun				1	,087	,005	-,315	,215	,165
Oz_bah					1	,321	,343	,244	,029
Oz_qabul						1	,519(*)	,126	,346
Oz_bogl							1	-,147	,098
Ich_niz								1	,552(*)
Oz_ayb									1

Shaxslararo munosabatda raqobatchanlikning kamayishi munosabatda moslashuvchanlikning oshishi bilan teskari bog'liq namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. ($r = -,896$; $p < 0,01$) Munosabatda hamkorlikning kamayishi vaziyatdan qochish ko'rsatgichi bilan bog'liq oshgan. Tojik millatiga mansub ota-onalardagi munosabatdaoilaviy jipslikdagi farqning kamayishi (qoniqishning oshishi) munosabatda moslashuvchanligining namoyon bo'lishi bilan

aniqlandi. ($r = -,740$; $p < 0,05$) Hamkorlikning oshishi bilan vaziyatdan qochish ko'rsatgichi kamayishi aks etgan. ($r = -,766$; $p < 0,05$). Keyingi jadvalimizdaoilaviy jipslikning oshishi bilano'ziga ishonchning ham oshishiga ($r = ,766$; $p < 0,05$), munosabatda kelishuvchanlikning oshishi o'zini boshqarishning pasayishi bilan ($r = -,870$; $p < 0,01$), o'ziga munosabatning oshishi raqobatchanlikning ham oshishi ($r = ,730$; $p < 0,05$), munosabatda hamkorlikning oshishi o'zini

4-jadval. Tojik millatiga mansub nizoli oiladagi ota-onalarning o'Ichov shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik.

	Oilaviy_jips	Oila_mosl	Raqob	Hamkor	Kelishuv	Vaz_qoch	Moslash
Oilaviy_jips	1	,387	,526	-,483	,542	-,079	-,740(*)
Oila_mosl		1	,367	,088	-,018	-,022	-,362
Raqob			1	-,114	-,329	-,059	-,896(**)
Hamkor				1	-,276	-,766(*)	,477
Kelishuv					1	-,242	,000
Vaziyat-dan qochish						1	-,154
Moslash							1

qabul qilish bilan kamayishi ($r_{-},712$; $p < 0,05$), munosabatda moslashuvchanlikning oshishi o'zini baholash ko'rsatgichining oshish bilan belgilandi. ($r_{-},720$; $p < 0,05$).

Xulosalar.

Tadqiqotda foydalanilgan metodikalarimiz hamda izlanishlarimiz asosida olingan empirik materiallar natijasida quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. O'zbek millatidagi nizoli oilalarining ota-onalarida o'zaro munosabatlar, kelishuvchanlik, o'zini aybdor his etish, munosabatlarda yuzakilik, o'zini va o'zgalarni qabul qila olishi, emotsional komfortlik, ichki nazorat ko'rsatgichlarining tojik millatiga mansub ota-onalarga nisbatan yuqori bo'lishi, ushbu oiladagi farzandlarda o'zbek oilalarida ustuvorlikning, tojik millatiga mansub farzandlarda nizoli vaziyatlardagi munosabatlarda moslashuvchanlikning, o'ziga ishonchning, o'zini qabul qilishi hamda o'ziga bog'langanlikning yuqori bo'lishi biz tahlil qilgan parametrik mezonlarda tavsiflandi.

2. Farzandlarning maqomiga ko'ra o'zbek oilasidagi to'ng'ich farzandlardagi o'zaro munosabatlarda raqobatchanlik, o'zini boshqarish, soxtalik, emotsional komfortlik, ichki nazorat, ustuvorlik hamda muammodan qochish ko'rsatgichlari keyingi farzandlarga nisbatan yuqori, keyingi farzandlarda vaziyatdan qochish, moslashuvchanlik, ichki samimiylik, ichki nizo, o'zini aybdor his etish ko'rsatgichi katta ya'ni tog'ich farzandlarda yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi.

3. Tojik millatidagi to'ng'ich farzandlarda aksincha o'zini boshqarish, moslashuvchanlik, muammodan qochish, emotsional komfortlilikning yuqori, keyingi farzandlarda raqobatchanlik, vaziyatdan qochish, soxtalik, munosabatlarda ustunlikning katta farzandlarga nisbatan yuqori bo'lishi yaqqol aks etgan.

4. Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, aka-ukalik, opa-singillik munosabatlari, ularning o'smir yoshidagi agressiv munosabatlari muammosi qadimdan olimlar diqqat e'tiborida bo'lgan.

5. "Sibling, sibs" terminlari yangilik bo'lsada, ammo bu so'zlarning ma'nosi bir oiladagi farzandlar va ular maqomlari (to'ng'ich, o'rtancha, kenja va yolg'iz farzandlar)ning o'ziga xosligi chuqur an'anaviy ildizga egadir. Zotan, farzandlar o'zaro munosabatlari muammolari xalqimiz orasida uzoq o'tmishdan qolgan xalq og'zaki ijodi namunalarida (doston, maqol, matal va ertaklar) ham, o'tmishning buyuk allomalari tomonidan yaratib qoldirilgan yuksak ma'naviy meroslarida ham o'z ifodasini topgan.

Tavsiyalar.

O'zbek va Tojik oilalaridagi sibling munosabatlarining ahamiyati yuqoridagi keltirilgan shkalalar bilan bog'liqligi, ushbu shkalalarning boshqalar bilan ijobiy munosabat o'rnatishlari uchun biz quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- oilada sibling maqomidagi farzandlarning o'zaro munosabatiga e'tiborli bo'lish;
- sibling maqomi farzandlar taqdiriga ma'lum darajada ijtimoiy psixologik ta'sir ko'rsatishiga anglab yetishi;
- sibling maqomidagi farzandlarning o'zaro munosabatlarning ijobiy shakllanishida muloqotchanlikka e'tiborli bo'lishi;
- ota-onasi bilan bo'lgan o'zaro munosabatda yaxshi munosabatda bo'lishi;
- qiziqishlari, hukmronlikka intilish kabi xususiyatlarni ta'lim-tarbiya jarayonidagi hamda oiladagi ijobiy psixologik muhit va o'smirlik yoshidagi o'ziga xos xususiyat, ya'ni taqlidchanlik xususiyati bilan bog'liqligini ham inobatga olish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 – 6 (766)-son – B.140.
2. Yo'ldoshev S.A. Oilaviy nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo'nalishi bo'yicha magistrlik diss. – Toshkent: 2022.
3. Сатир В. Ви и ваша семья. – М.: Аспект процесса, 2001 с.
4. Salayeva N. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nom. dis. –Toshkent: 2002. - 180 b.
5. Samarov R.S. Tojik oilasida er-xotin nizolarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari. Psixol. Fan.nomzdis. – Toshkent: 1997. – 141 b.
6. Jo'rayeva Sh.Sh. Tojik oilasida nikohdan qoniqishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. dis. – Toshkent: 2004. – 130 b.
7. Утепбергенов М.А. Социальные и этнопсихологические особенности Каракалпакской семьи. Дис... канд. психол. наук. -Ташкент.1999. – 154 с.
8. Согинов Н.А Социалтно-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье: Автореф. дис....канд. психол. наук. – Киев: 1990. – 20 с.